

**Valisherova Maxmudaxon Musajon qizi**

*Andijon viloyati, Bo‘ston tumanidagi*

*21-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining*

*boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

*Tel: +998943819055*

*e-mail: valisherovbobomurod763@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining davlat ramzlaridan biri bo‘lmish bayroq haqida ma‘lumotlar berib tavsiflanadi shuningdek yurtimiz tarixida mavjud bo‘lgan ulkan mamlakatlar bayroqlari haqida ham fikr yuritilib tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Bayroq, O‘zbekiston Respublikasi, Konstitutsiya, Temuriylar davlati, xalqaro musobaqalar.*

**Kirish.** Bugungi kunga kelib dunyo xaritasida mamlakatlarning soni 210 tadan oshgan bo‘lib ularning har biri davlatning xalqaro miqyosda mavjud ekanligini kafolatlab beruvchi omillardan biri bo‘lmish o‘z ramzlariga ega. Bu ramzlardan biri – bayroq sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi ham boshqa mamlakatlar singari 1991-yil 31- avgust sanasida mustaqillik haqidagi tarixiy hujjat imzolanganidan so‘ng o‘z davlat ramzlarini ishlab chiqishga kirishdi. Bu davlat ramzlar orasida dastlab Respublika bayrog‘i – 1991-yilning 18-noyabrida qabul qilindi.

**Asosiy qism.** 1991 – yilning 18-noyabr sanasida shunday qilib davlatchiligimiz tarixiga bayroq qabul qilingan kun sifatida muhrlandi va aynan shu sanada “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida” gi 13 moddadan iborat qonun ham qabul qilindi. Bundan tashqari Respublika bosh qomusining 5-moddasida ham bu haqida so‘z borgan bo‘lib u quyidagicha mazmunda-“O‘zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlangan o‘z davlat ramzlari – bayrog‘i, gerbi va madhiyasiga ega”. Bir so‘z bilan ta‘kidlanganda O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i O‘zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining ramzidir. Bayroqqa mukammal tarzda tavsif ham 18-noyabrdagi qonunda keltirib o‘tilgan. Ushbu qonunning 4- moddasida -“O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i – bayroqning butun uzunligi bo‘ylab o‘tgan to‘q moviy rang, oq rang va to‘q yashil rangli uchta endan tarkib topgan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi matodir” deb ta‘riflanadi. Ushbu modda quyidagicha davom etadi: “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining uzunligi 250 santimetrغا teng bo‘lib uning kengligi 125 santimetrغا teng. Moviy rang, oq rang va yashil rangli enlarning kengligi bir xil. Har bir en 40 santimetrغا tengdir. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining o‘rtasidagi oq rangli enning chetlaridan kengligi 2,5 santimetrغا teng qizil hoshiyalar o‘tkazilgan. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining yuqori qismidagi moviy rangli enning yuz tomoni va orqa tomonida dastaga yaqin joyida oq rangli yangi

oy va uning yonida oʻn ikkita oq rangdagi besh qirrali yulduz tasvirlangan. Oq rangli yangi oy va oʻn ikkita oq rangli besh qirrali yulduzning tasviri moviy rangli yuqori enning oʻrtasidan 75x30 santimetrga teng toʻgʻri toʻrtburchakka sigʻadigan qilib joylashtirilgan. Oq rangli yangi oy vertikal holatda doʻng tomoni dastaga qaratilgan, dastadan 20 santimetr masofada joylashtirilgan boʻlib, diametri 30 santimetrli doiraga sigʻadi. Oʻn ikkita oq rangli besh qirrali yulduz diametri 6 santimetrli doiraga sigʻadi. Doiralarda orasidagi masofa 6 santimetr. Yulduzlar uzunasiga va tikkasiga quyidagi tartibda joylashadi: yuqori qatorda uchta, oʻrta qatorda toʻrtta va quyi qatorda beshta yulduz. Quyi qatordagi yulduzlar yangi oyning pastki uchidan 3,5 santimetr masofada joylashadi”. Albatta, bu maʼlumotlarga asoslanib har kim bayroqning qanday shaklda ekanligini bemalol koʻz oldida gavdalantira oladi. Bayroqdagi ranglar ham oʻz maʼnosiga ega. Bayroqdagi havorang – milliy qadriyatlarimizga koʻra zangori osmon va musaffo suv ramzidir. Moviy havorang Sharqda azaldan qadrlanadi, misol uchun Movaraunnahr diyorida buyuk imperiyaga asos solgan Amir Temur ham oʻz bayrogʻiga bu rangni tanlagan. Oq rang esa tinchlik va poklik timsolidir. Bayroqdagi oq rang Oʻzbekiston Respublikasi tanlagan yoʻlning musaffo va charogʻon boʻlishi uchun yaxshi niyat ramzidir. Bayroq oʻrtasidagi qizil chiziqlar — bu har bir tirik jonning qon tomirida urib turgan hayotiy kuch, hayot ramzidir. Yashil rang esa serneʼmat va orombaxsh tabiat timsoli hisoblanadi. Hozirgi vaqtda butun dunyoda atrof-muhitni muhofaza qilish harakatlari keng yoyilayotganligi ham koʻrsatib oʻtilganligini ushbu rangda koʻrish mumkin boʻladi. Bayroqdagi 12 ta yulduz haqida ham turli tavsiflar mavjud va ulardan biri Oʻzbekistondagi 12 ta viloyatga asoslanib olingan deyilsa, boshqa maʼlumotlarda shunchaki mukammallik ramzi sifatida olingan deb aytiladi. Yulduzlar bilan birga keladigan yarim oy esa mamlakatimizning milliy anʼanalirini namoyon qiladi. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat bayrogʻini Xalqaro tashkilot qarorgohlari oldida, Oʻzbekistonning oʻzidagi davlat organlari binolari, nodavlat tashkilotlari oldida, sport musobaqalarida yuqori natijalar qayd etilganida va boshqa shu kabi bir qator holatlarda yuqoriga koʻtariladi. 1992-yil, 2-mart sanasida Oʻzbekiston BMT tashkiloti rasmiy aʼzosiga aylanganidan keyin Nyu York dagi BMT qarorgohi oldiga oʻrnatilgan.



Shavkat Mirziyoyev BMT tashkilotining 76-sessiyasida nutqi. BMT va O‘zbekiston bayroqlari uning ortida turibdi.

1370-1506-yilda mavjud bo‘lib, buyuk imperiyaga aylangan temuriylar sulolasi bayrog‘i ham yurtimiz tarixidagi ilk davlat ramzlaridan hisoblanadi. Temuriylar bayrog‘i to‘liq havoranda va uning ichida 3 ta halqa mavjud. Ushbu halqalar o‘sha davrdagi “ming san‘at” jang san‘ati asosida yaratilgan deyiladi. Ushbu jang san‘ati haqida o‘sha davr mashhur ulamolaridan usta Majid shunday deydi: “Jang san‘ati uch tumor (halqa), o‘ttiz uch yo‘l, bir butun tizimdan iborat. Har bir yo‘l ichida o‘z usullari bor. Hisoblab chiqilsa, roppa-rosa ming usul hosil bo‘ladi. Bir kishi shu usullarni hammasini o‘rgansa, “Ming askar”ga teng keluvchi har qanday saltanatga tayanch yengilmas kuchga aylanadi, ming askar sohibi bo‘ladi” - deydi. Yaxshilab e‘tibor bilan qaralsa uch halqa bu – birinchisi, tong otishi, ikkinchisi-peshin vaqti va so‘ngisi kun botishini ifodalaydi. Bundan kelib chiqayaptiki ushbu halqalar Amir Temur bayrog‘idagi halqalarga ham mos kela oladi. Umuman olganda Amir Temur ham o‘z saltanati bayrog‘ini aniq bir qadriyatlarga asoslangan holda o‘zining davlatini ramziy belgisi sifatida yaratgan.

**Xulosa** qilib aytilganda, yaqin kunlarda davlatimiz ramzining qabul qilinganligining 31 yilligi keng miqyosda yurtimizda nishonlanadi. Bayroq haqida fuqarolar, ayniqsa yoshlar ongida hurmat hissini uyg‘otish maqsadida O‘zbekiston adabiyot vakillari tomonidan ko‘plab she‘r va boshqa asarlar yaratilgani hamda bularning maktab darsligi sifatida o‘rrgatilishi juda katta yutuq albatta. Lekin, har bir fuqaro shu omillardan kelib chiqib, har qanday joy ya‘ni xoh u O‘zbekiston bo‘lsin xoh chet el, har bir o‘zbek davlat bayrog‘iga nisbatan yuqori darajadagi hurmatini ko‘rsata olishi kerak.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. “O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i to'g'risida” gi qonun.
3. <https://oyina.uz/uz/article/723>
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston\\_bayrog'i](https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston_bayrog'i)